“Xalqaro ekskursvodlar kuni”ga bag’ishlangan tadbir bo’lib o’tdi

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida 21-fevral kuni “Xalqaro ekskursvodlar kuni”ga bag’ishlangan tadbir bo’lib o’tdi.

Unda Yunus Rajabiy uy-muzeyi, Sulaymon Yudakov uy-muzeyi, “O'zbekistonda 40-yillarda Yaponiya fuqarolarni bo’lganliklari xotira ekspozitsiyasi”, “Yevro-Osiyo xalqaro tashkilotlarini informasion markazi”, “Sayyora – bizning umumiy uyimiz” xalqaro informasion loyihasi, “Qovoq muzeyi”, “Zukkolar “bakiy” klubi vakillari ishtirok etishdi. Tadbirda O’zbekiston xalq hofizi H.Rajabiy “Shashmaqom”dan ijrolar qildi. Shuningdek, rus, ukrain, yaxudiy va boshqird tillarida ham ashulalar ijro etildi.